REVMATOID ARTRITDA ALLERGIK MUAMMOLAR: KLINIK VA IMMUNOLOGIK ASPEKTLAR

Sagatova Dilnoza Rahimovna – t.f.n. dotsent
Nizamova Dilnoza Baxrom qizi
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Dolzarbligi: Revmatoid artrit (RA) va allergik reaksiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hozirgi davrda revmatologiya va immunologiya fanlarining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Shu bilan birga, allergik kasalliklar ham immun tizimining ortiqcha faolligi yoki noto‘g‘ri javobi bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda RA bilan og‘rigan bemorlarning 30–40 % da turli xil allergik muammolar (dori, oziq-ovqat yoki atrof-muhit omillariga sezuvchanlik) kuzatilmoqda. Ayniqsa, dori vositalariga (NYQV, metotreksat, biologik preparatlar) allergik reaksiyalar klinik amaliyotda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi: revmatoid artrit bilan og‘rigan bemorlarda allergik muammolarning uchrash chastotasini, ularning immun mexanizmlarini va klinik oqibatlarini o‘rganishdir.

Usul va uslublar: Tadqiqotda 60 nafar revmatoid artrit bilan og‘rigan bemor ishtirok etdi. Nazorat guruhi sifatida 30 sog‘lom shaxs tekshirildi. Tadqiqot davomida quyidagi usullar qo‘llanildi: klinik baholash (DAS-28 indeksi), laborator tahlillar (IgE, CRP, RF, anti-SSP, ESR) va anamnestik so‘rov.

Natijalar: RA bilan og‘rigan bemorlarning 36,7% da turli xil allergik reaksiyalar kuzatildi. Dori allergiyasi (ayniqsa NSAID va antibiotiklarga) eng ko‘p uchradi — 22%. Umumiy IgE darajasi sog‘lomlarga nisbatan o‘rtacha 1,8 barobar yuqori bo‘ldi. IL-4, IL-6 va TNF-α sitokinlarining ortishi allergik sezuvchanlik bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan. Allergik fon mavjud bo‘lgan bemorlarda RA faolligi yuqoriroq bo‘lib, kasallik remissiyasi kamroq kuzatildi.

Xulosa: IgE va proinflammator sitokinlar darajasining ortishi RA patogenezida allergik mexanizmlarning ishtirokini tasdiqlaydi. Klinik amaliyotda RA bemorlarida allergik fonni baholash, dori vositalariga individual sezuvchanlikni aniqlash muhimdir. Allergik muammolarni erta aniqlash va tuzatish kasallikning kechishini yengillashtiradi va davolash samaradorligini oshiradi.